

YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARIDA KELISHIKLAR TAVSIFI

Ibragimova Xurshida Ilhom qizi

Chiqchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O‘zbek tili va
adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Mutatova Nafisa Baxtiyorovna**

CHDPU tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning „Qutadğu bilig“ asarida uchraydigan morfologik shakllar, xususan, kelishik shakllari haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: qadimgi turkiy til, ilk uyg‘onish davri, kelishik shakllari, grammatik shakllar, Qoraxoniylar davri, vosita kelishigi

X-XII asrlar Markaziy Osiyo xalqlari tarixida alohida bir davrni tashkil etadi. Bu davr barcha sohalarning rivojlanishi, ilm-fanning yuksak taraqqiyoti bilan xarakterlanadi. Markaziy Osiyo xalqlari me'morchilik, tasviriy san'at, naqqoshlik, o'ymakorlik, musiqa, ayniqsa, adabiyot kabi sohalarda katta yutuqlarga erishdilar. Shuning uchun biz IX-XII asrlardagi O'rta Osiyo madaniy yuksalishini "Uyg'onish davri", aniqrog'i, "ilk Uyg'onish" davri deb atashga ham to'la asosimiz bor. Mana shu davrda yaratilgan Mahmud Qoshg‘ariyning "Devoni lug‘ati turk" va Yusuf Xos Hojibning "Qutadğu bilig" asarlari turkiy tillar tarixidagi eng durdona asarlardan hisoblanadi, desak yanglishmaymiz. «Yusuf Xos Hojib «Qutadg‘u bilig» dostonida qoraxoniylar davlati hududida yashovchi qabilalar tilidagi umumiy xususiyatlarni birlashtirdi. Bunda chigil qabilalarining tilini asos qilib oldi. U qabilalar tilidagi talaffuzda farqlanadigan va turlicha yoziladigan so‘zlarning talaffuzi hamda imlosini bir xillikka keltirdi. Yusuf Xos Hojib o‘sha davr tilidagi turli xil morfologik va grammatik shakllarni yangi so‘zlarda qo‘llab, ularni tilda yangi hodisa sifatida tanitishga, umumlashtirishga muvaffaq bo‘ldi. »

Qoraxoniylar davrida hozirgi adabiy tilimizdagi kabi quyidagi oltita kelishik amalda bo‘lgan: bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo‘nalish kelishigi, o‘rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi. Oldingi davrlarda yettinchi kelishik — vosita kelishigi ham iste’molda bo‘lgan. Bosh kelishikdan tashqari, har bir kelishik shakli maxsus affiks (yoki affikslar) yordamida hosil qilingan.

Bosh kelishik. O‘sha davrda ham bosh kelishik maxsus morfologik shaklga ega bo‘lmagan. Bosh kelishikka qo‘shimchalar qo‘shish orqali boshqa kelishik shakllari hosil qilingan. Bosh kelishikli so‘z gapda asosan ega vazifasini bajargan:



Zakovat, bilimga kalitdir bu til,
Yoritguvchi yerni ravon tilni bil.
Kishin til ulug'lar, topar qut kishi,
Kishin til tubanlar, yorilar boshi.

„Qutadg‘u bilig“da keltirilgan bu to‘rtlikda birinchi, uchinchi va to‘rtinchi misralardagi til so‘zi bosh kelishikda kelgan.

Qaratqich kelishigi. Qaratqich kelishigi affiksi quyidagi shakllarga ega bo‘lgan:
- ning / -ning, - nung; / -ing , -ing -ung. Bu shakllar bir affiksning turli fonetik ko‘rinishlari bo‘lib, bulardan qaysi birining ishlatilishi shu affiksni qabul qiluvchi so‘zning fonetik tuzilishiga yoki yozuv

yodgorliklari tilining dialektal xususiyatlariga bog‘liq. Quyida parchalardan misol kóramiz:

Javob berdi O‘zg‘urmush aytdi: Sening
Tilaging bu bo‘lsa, mening tilagim yo‘q.
Hama ishga vaqti, kuni belgilik,
Nafas, dam olishning soni belgilik .

Tushum kelishigi. Tushum kelishigining -i /- i hamda -ğ /-g (undoshdan keyin -iğ/ -iğ; -ig /-ig) shakllari XI- XII asrlardagi yozuv yodgorliklarida, xususan, „Qutadg‘u bilig“da ko‘p uchraydi: „Yaqin tutti Ilik, kør,

Øgdülmishi“ — „Ko‘r, Ilik O‘gdülmishni o‘ziga yaqin tutdi“; „Atig‘ øgsä, yügrür, ucharig‘ yätär “— „Otni parvarish qilsang, tez chopadi va uchar (qush)ni ham qoldiradi“; „Munguqmish kishilär ølümüg qolur“ — „G‘amgin kishilar o‘limni tilaydilar“. Tushum kelishigining -g‘/-g affiksli shakli XII asrdan keyingi yozuv yodgorliklarida uchramaydi, hozirgi kunda ham qo‘llanmaydi.

Jo‘nalish kelishigi. Jo‘nalish kelishigining -a/ -ä affiksi qadimgi yodgorliklar tilida ham asosan egalik shaklli so‘zlarga qo‘shilgan: Øzüm arzuladi aning qapg'unga — „Uning saroyiga (kelishni) o‘zim istadim“. Shuningdek, jo‘nalish kelishigining -garu/ -g'aru shakllaridan ham foydalanilgan: Bayat tapg‘ingaru ilinmish øzüm — “Men tangrining xizmatiga moyil

bo ‘Iganman " (tapg‘ingaru > tapg ‘ing +garu).

O‘rin-payt kelishigi. O‘rin-payt kelishigi affiksi eski o‘zbek tilida jarangli (d) undoshi bilan boshlanuvchi -da/ -dä va jarangsiz (t) undoshi bilan boshlanuvchi -ta/-tä shakllarida qo‘llangan. Bu affiks tarkibidagi undoshning jarangli yoki jarangsiz holda kelishi odatda shu affiksni qabul qiluvchi so‘zning qanday tovush bilan tugagan bo‘lishiga bog‘liq bo‘ladi, ya’ni unli va jarangli undosh bilan tugagan so‘zlarga jarangli



-da/-dä shakllari qo‘shiladi: uyquda, kəzɡüdə, tashqarida, ichkārıda, suvda, bag‘da, sezdä, g‘amda, tūnda, bazarda, yerdä kabi.

Jarangsiz undosh bilan tugagan so‘zlarga esa jarangsiz -ta/-tä shakllari qo‘shiladi: yurtta, eshiktä, qishlaqta, kektä, tashta, ishlä, ulusta kabi.

Chiqish kelishigi. „Qutadg‘u bilig“da chiqish kelishigining -din/ -dın/, -tin/ -tın, -dun/ -dün, -tun/ -tün affiksli shakllari uchraydi. Buzundan talusi, kishidän chini— “Xalqdan yetugi, kishilardan sof dili”. Mana oq tapundung kichikdän berü — “Kichikligingdan beri faqat menga xizmat qilding”.

Vosita kelishigi. Vosita kelishigi shakli -n (undoshdan keyin: - in/-ın / -un/-ün) affiksi bilan hosil bo‘ladi: arzu+n, adaq+in, til+in, qol+un, kez+ ün kabi.

Vosita kelishigi turkiy tillar taraqqiyotining qadimgi davrlariga xos bo‘lgan. Bu kelishik O‘rxun -Enasoy va qadimgi turkiy til yodgorliklarida, “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘atit- turk” asarlarida ancha keng iste‘molda bo‘lib, ma‘nosi ham ancha keng bo‘lgan. Masalan:

1. Qurol, vosita bildiradi, ya‘ni ish-harakatning amalga oshuvi vosita kelishigidagi so‘z ifodalagan narsa yordamida, vositasida bo‘ladi: Bashinda kechürmish, kezün kermish er — “Boshidan (ko ‘pni) kechirgan, o‘z (ko‘zi bilan ko‘p narsalarni) ko‘rgan kishi”.

2. Birgalikni bildiradi, ya‘ni ish-harakatning birgalikda bajarilishini anglatadi: Turub barsa avg‘a xılın, qoldashın — “Ovga o ‘z tengi va do‘sti bilan borsa

3. Ish-harakatning bajarilish usulini, holatini bildiradi: Bälingläb uzudi özi yalg‘uzun— “O‘zi yolg‘izlikda qo‘rqib uyg‘ondi.

4. Ish-harakatning bo‘lish paytini, vaqtini bildiradi: Künün yämädi, kør, tünün yatmadi — „Qara, kunduz yemadi, kecha yotmadi (dam olmadi) ”

5. Ish-harakatning bo‘lish o‘rnini bildiradi: Käräk yer üzä tur, käräk yer qatin — “Xoh yer ustida tur, xoh yer ostida“.

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari bugungi kun talabalari, o‘qituvchi va professorlar uchun muhim qo‘llanma vazifasini o‘tab kelmoqda. Undagi morfologik shakllardan hanuzgacha ham shaklan bo‘lmasada mazmunan foydalanib kelinmoqda. Uning qadr-qimmatini nafaqat o‘zbek xalqi, balki boshqa turkiy xalqlar uchun ham yuksak hisoblanib, nodir manba hisoblanadi. Yusuf Xos Hojibning mazkur asari insonni har tomonlama kamolga yetkazishda yirik ta‘limiy-axloqiy asardir. Shuning uchun ham bu asar o‘zining ilmiy, ma‘rifiy, tarbiyaviy ahamiyatini shu paytgacha saqlab kelyapti.



Foydalangan adabiyotlar:

1. Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig" –Toshkent.:1971
2. G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov. "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" –Toshkent.: 2008
3. N. Rahmonov, Q. Sodiqov. "O'zbek tili tarixi" –Toshkent.: 2009
4. A. Nurmonov. "O'zbek tilshunosligi tarixi" –Toshkent.:2003
5. M.Qosimova "Qutadg'u bilig" asarining ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU II bosqich magistranti maqolasi

